

TIKUVCHILIK JIHOZLARIDA ISHLASH KO’NIKMALARI

Toshtemirova Zuxraxon

Farg’ona viloyati Farg’ona tumani Dag’ara tumani 2-son kasb-hunar maktabi o’qituvchisi

Annatotsiya

Bugungi kunda davlatimiz o‘z fuqorolarining nafaqat bilimli, balki hunarli bo‘lishlari uchun ham katta sharoitlar yaratib bermoqda. Xususan, o‘zlarining hunarlari orqali tadbirdorlik subyektlarini ochishlari uchun turli yo‘nalishlar va foizsiz kreditlar berilmoqda. Yoshlarimizning ko‘pchilik qismini hunarli bo‘lishga da’vat etmoqda. Mazkur maqolamiz aynan shu haqida, ya’ni tikuvchilik va ushbu hunar turida har xil uskunalar yoxud jihozlar bilan ishslash ko’nikmalarini shakllantirishga bag‘ishlangan.

Abstarct

Today, our country creates great conditions for its citizens to become not only educated, but also skilled. In particular, various directions and interest-free loans are provided for opening business entities through their profession. Most of our young people are encouraged to become skilled workers. This article is about this, that is, tailoring and the formation of skills in working with various equipment or equipment in this profession.

Аннотация

Сегодня в нашей стране созданы прекрасные условия для того, чтобы ее граждане стали не только образованными, но и квалифицированными. В частности, предусмотрены различные направления и беспроцентные кредиты для открытия субъектов предпринимательства по своей профессии. Большинству наших молодых людей предлагается стать квалифицированными рабочими. Эта статья именно об этом, то есть о пошиве одежды и формировании навыков работы с различной техникой или оборудованием в этой профессии.

Kalit so’zlar

hunarmandchilik, yoshlar, tikuvchilik, xavfsizlik, qaychi, andaza, dazmol

Bizning xalqimiz qadim-qadimdan mehnatkash, hunarmand xalq sifatida tarixga muhrlangan. Har bir o‘zbek xonadoni farzandi voyaga yetish bilan unga biror hunar yoki kasb-kor o’rgatish ishtiyoqida yonadi, ushbu an’ana jamiyatimizning qon-qoniga singib ketgan. Donishmand xalqimiz bekorga, “Hunarli kishi-xor bo’lmas” demaydi, sabab esa ming yilliklarga borib tarqaladigan o’tmishimiz bilan bog’liq. Bugungi kunda jamiyatimizda xalqimizni, ayniqsa yoshlarimizni hunarli qilish borasida bir qancha tashviqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 3-noyabr kuni “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish, hunarmandlarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash, aholi bandligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o’tkazildi”, deb yozadi axborot markazi. Mamlakatimizda hunarmandlik azaldan yaxshi rivojlangan. Bolalikdan hunar o‘rganish, yaratgan mahsuloti va mehnati bilan odamlarga naf keltirish xalqimizning milliy qadriyatiga aylangan. Hunar turlari asrlar davomida kengayib, yangi yo‘nalishlar va maktablar bilan boyib borgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda yurtimizda

hunarmandlikning 34 turi mavjud. Mustaqillik yillarda milliy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlanadirish yo’lida yaratilgan imkoniyatlar samarasida hunarmandlik ravnaqiga keng yo’l ochildi. Respublika «Hunarmand» uyushmasi, joylarda esa uning bo’limlari tashkil etildi. Bir paytlar usta va hunarmandlar o’zlari yaratgan buyumlarni sotish, namoyish etishda turli to’siqlarga uchragan bo’lsa, bugun har bir tuman va shaharda hunarmandlar markazlari faoliyat yuritmoqda, bozorlar va savdo majmualarida maxsus savdo rastalari tashkil etilgan. Hunarmandlik avloddan-avlodga o’tib kelayotgan sulolalar faoliyati qo’llab-quvvatlanmoqda. Ular «ustoz-shogird» an’anasi asosida yosh avlodga o’rgatilmoqda.

Bizning mazkur maqolamiz aynan tikuvcilik va unda ishlatiladigan, foydalaniladigan jihozlarning texnikasi haqida. Hozir tikuvcilikda foydalaniladigan jihozlar va ularning xususiyatlari haqida to’xtalib o’tamiz:

- **Dazmollar**

Dazmollar bug‘, elektr-bug‘ bilan qizitilishi mumkin. Elektr dazmollar spiral yoki naychali elektr isitkichli bo’lishi mumkin. Ular nimaga mo’ljallaganligiga qarab, har xil og’irlikda bo’ladi. Masalan, yengil kiyimlarni dazmollahsga 4 kg li, kostyum va ip gazlamadan tikiladigan buyumlar uchun massasi 6 kg li, paltolar uchun massasi 8 kg. li dazmol ishlatiladi. Dazmol yuzasi 140-220 S gacha qizishi mumkin. Dazmolmato qo’yib dazmollahda dazmol yuzasini odatdagidan 20 S ortiq qizitish mumkin. Gazlamaga dazmolmatosiz va namlamay turib isitib ishlov berilsa gazlamaning ustki qatlamlaridagi fizik-mexanik xususiyatlari buzilishi, ya’ni kuyishi mumkin. Dazmolmatodagi to’qilgan gullar ochiqdan-ochiq seziladigan bo’lmasligi, uning tolalarining elastiklik xususiyatlari ishlanayotgan gazlama tolalarining elastiklik xususiyatlaridan kam bo’lishi kerak. Bu gazlama strukturasini buzilishidan saqlaydi va yaltirab qolish ehtimolini kamaytiradi.

- **Qaychilar**

Gazlama va materiallarni bichish mexanizatsiyalashtirilgan ko’plab ishlab chiqarish sharoitida qaychilar, asosan, detallarning chetini qirqib tekislash yoki iplarni uzish uchun ishlatiladi. Kiyim yakka buyurtmalar bo’yicha tikiladigan atelelarda esa gazlamalar qaychi bilan bichiladi, shuningdek, detallarning chetlari tekislanadi, qo’lda bajariladigan boshqa operatsiyalar ham qaychi bilan amalga oshiriladi. Tikuvchilikda foydalaniladigan qaychilar 8 nomerli bo’ladi. Qaychining nomeri bajariladigan operatsiyaga va bichiladigan gazlamaga qarab tanlanadi. Qaychilar g’irchillamay ochilib yopilishi, tig’i boshidan oxirigacha birdekkayshi qirqishi lozim. Iplarning uchini qirqishda maxsus qaychilardan foydalaniladi.

- **Andazalar**

Andazalar – karton yoki boshqa materiallardan tayyorlangan kiyim detallaridan iborat. Andazalar etalon andazalar, ishchi andazalar va qo’shimcha andazalarga bo’linadi. Etalon andaza detallar konturlarini gazlamaga tushirish uchun ishlatilmaydi. Ular faqat ko’plab ishlab chiqarishda ishlatiladigan andazalar komplektini tayyorlash va tekshirishda qo’llaniladi. Ishchi andazalar yordamida gazlamalarga detallar konturlari tushiriladi, kiyim detallarini to’g’ri biriktirish uchun nazorat kertimlari belgilanadi. Qo’shimcha andazalar tikuvchilik sexlarida vitachkalar, petlalar, tugmalar o’rnini, bortlar, yoqalar burchaklarini belgilash (bo’rlash) uchun ishlatiladi. Bo’rlar bichish va o’lchab ko’rishdagi chiziq hamda belgilarni gazlamaga tushirishda ishlatiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, ushbu hunar bilan shug’ullanmasdan oldin, uning jihozlari texnikasi bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq, aks holda o’zimizga yoki atrofimizdagilarga zarar yetkazib qo’yishimiz mungkin.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

- Muslimov N.A, Sharipov Sh.S, Sattorov.V.N, Davletov K.D. “Mehnat ta’limi o’qitish metodikasi”. O’quv qo’llanma T.2009.
- Muslimov N.A, Sharipov Sh.S, Qodirov M. “Texnik ijodkorlik va dizayin”. T.: “TDPU”, 2010-yil
- Babajonov M.A. “Texnologik jarayonlarni loyixalash” Cho’lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2009.